



CHOLG‘U IJROCHILIGI VA TA’LIM: MAQOMNI YANGI AVLODGA O’RGATISH

Kadirov Utkur Sakidjanovich –

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa san’atining yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Milliy musiqaning tarixiy rivoji va maqom cholg‘ulari ijrochiligin o‘rganish orqali bu san’atning o‘rni va ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqolada, shuningdek, o‘rta asr musiqashunoslarining ilmiy va musiqa merosi hamda zamonaviy o‘zbek kompozitorlarining ijodida milliy musiqa an’analari va maqomlarining qanday qo’llanilayotgani haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so’zlar: Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, doston, qo‘sish, mafkura, psixologiya, ustoz-shogird an’analari.

Abstract:

This article examines the significant role of national music in the upbringing of younger generations. The history and study of national music, specifically through the example of maqom instrumental performance, are analyzed. The article also discusses the contribution of medieval musicologists' scientific and musical heritage and the use of national musical traditions in the works of contemporary Uzbek composers.

Keywords: Bukhara Shashmaqom, Khorezm maqoms, Fergana-Tashkent maqom routes, epic, fairy tale, proverb, song, riddle, ideology, psychology, teacher-student traditions.

Аннотация:

В данной статье рассматривается важность национального музыкального искусства в воспитании молодого поколения. История и изучение национальной музыки, в частности через пример исполнения инструментов в жанре маком, показывают её значимость. Также в статье обсуждаются научное и музыкальное наследие средневековых музыкантов, а также использование национальных музыкальных традиций в творчестве современных узбекских композиторов.

Ключевые слова: Бухарский Шашмаком, хорезмские макомы, фергано-Ташкентские макомные пути, эпос, пословица, песня, идеология, психология, традиции учитель-ученик.

Musiqa san'ati, o'zining turli janrlari, shakllari va uslublari bilan birligida milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Bunda ijrochilik, ayniqsa, an'anaviy musiqa va maqom san'ati o'zining tarixiy va estetik ahamiyatini yo'qotmagan. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, musiqa san'atida ham ijrochilikni o'rgatish tizimi muhim o'rinn tutadi. Ustoz-shogird an'anasi orqali mahoratni o'rganish, tajriba almashish va san'atni avloddan-avlodga o'tkazish amaliyoti hamisha ilgari surilib kelgan. Bugungi kunda, jahon madaniyati bilan integratsiya va zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash orqali, maqom san'atini yangi avlodga o'rgatish masalasi dolzarb bo'lib, musiqa ta'limi tizimida o'zgarishlar va takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqom san'atini takomillashtirishda, eng avvalo, azaliy ijro an'analari asnosida yangi ijod navlarini yaratish bilan mumtoz musiqani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan 20 dan ortiq qaror va farmoni sohada yangicha munosabatni shakllantirdi. Davlatimizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham yosh avlodni hozirgi zamon talabiga to'la javob beradigan yetuk mutaxassislar qabilida tarbiyalash nazarda tutilgan. Buning uchun ta'limda barcha sharoitlar yetarli darajada mavjuddir.

Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa ijodiyoti va uning janrlari asosida rivojlanadi. Ijro an'analari va yo'llari ham ijrochilik amaliyoti jarayonida kengayib, boyib boradi. Aslida ijrochilik amaliyoti og'zaki tarzda og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelgan. Ushbu jarayon “ustoz-shogird” an'analari negizida kamol topib kelgan. Maqom cholg'u ijrochilik ta'limi bizgacha ustoz-shogirdlik maktablaritizimi orqali yetib kelgan. Adabiyotlarda bu an'anening rivojlanib kelganligi qayd etib o'tilgan.

An'anaviy sozandalikni kasb etish niyatida bo'lgan har bir cholg'u sohibi albatta bir ustozni etagini tutib, ustozdan ijrochilik, sozandalik sirlarini o'zlashtirishga harakat qilgan. Xalqimiz tomonidan bu amaliyot albatta o'zining qoidalariga ega bo'lganligialohida qayd etib o'tilgan. Qadimdan bizga ma'lumki, musiqiy qobiliyat, cholg'u imkoniyati va san'atga ishtiyoqi bo'lmaganlar bu kasbga murojaat etishmagan. Qobiliyati borlar esa o'z ustoziga mehr qo'yib, sohasining barcha qiyinchilikariga bardosh berib, kasb o'rganishga harakat qilib kelgan. Sozandalikning eng muhim xislatlaridan biri ham shunda deyish mumkindir.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham o'zining o'ziga xos milliy qadriyatları va shu bilan birgalikda o'tmishi, tarixi davomida vujudga kelgan, shakllanib rivojlangan ma'naviy, musiqiy va adabiy merosiga egadir. O'zbek musiqa merosining har tomonlama mukammalligi va ma'naviy boyligi barchaga ayondir. Ma'lumki, har qanday milliy meros davrlar osha avlodlardan -avlodlarga o'tib kelgan. Bu albatta og'zaki tarzda asrlar osha xalqimizni ma'naviyati sifatida amaliyot rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Milliy qadriyatlar zamon talabi taqozo etgan urf, odat, mehnat va hayot jarayonisekin-asta zamonga moslanib, an'anaga aylanib boraveradi. Milliy musiqa merosimizning shakllanish jarayonida xalq an'analari muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, mavjud an'analar bir-birini to'ldiruvchi, alohida o'ziga xoslik xususiyati va sifatiga ega bo'lib kelgan.

Musiqiy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bu — “ustoz-shogird” tizimi. Bu uslub, qadimdan boshlab, musiqiy bilimlarni avlodlarga o'rgatishda eng samarali usul bo'lib kelgan. Ustoz san'atini o'rgatish jarayonida, shogird nafaqat musiqanining texnik tomonlarini, balki uning chuqur ma'naviy va estetik qirralarini ham o'zlashtiradi. Maqom san'atining o'rgatish usuli o'ziga xos bo'lib, shu san'atga oid qoidalar, nafaqat musiqiy ijro, balki badiiy talqin, janr va uslubni ham talab etadi.

Bugungi kunda, musiqa ta’limining ta’siri nafaqat san’atning texnik jihatlarini o’zlashtirish bilan cheklanadi. U zamonaviy pedagogik uslublar bilan boyitilishi kerak. An’anaviy metodlarni zamonaviy o’qitish texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish, musiqa ta’limi o’qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik va ijodiy salohiyatini oshirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu borada ta’lim tizimini yangilash, o‘quv jarayonida mustahkam nazariy asoslarni yaratish, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Maqom san’ati kabi murakkab va boy musiqiy janrni yangi avlodga o‘rgatish o‘ziga xos pedagogik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ijro uslublari va musiqiy bilimlar haqida nazariy tushunchalarni shakllantirish, shogirdni nafaqat musiqani chalishga, balki uning ruhini, tuzilishini va mazmunini to‘g‘ri talqin qilishga o‘rgatish zarur. Bu o‘rgatish jarayonida an’anaviy metodlar — o‘rganish va kuzatish, yirik ustozlardan mashq qilish, amaliyotlar o’tkazish orqali o’zlashtiriladi. Biroq, bu boradagi yondashuvni yangilash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarur.

Zamonaviy musiqa ta’limi o’qituvchisi yuqori darajadagi ijodiy salohiyatga ega bo‘lishi kerak. Musiqiy kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, musiqa pedagogikasiga integratsiya qilish, yangi metodologiyalarni qo‘llash o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilarni zamonaviy musiqa vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish, ularni ijodiy fikrlashga, yangi musiqiy shakllarni yaratishga undaydi.

Maqomni o‘rgatish: an`ana va innovatsiya

Maqom san’ati o‘zining tarixiy ahamiyatiga ega bo‘lib, ko‘plab asrlar davomida shakllangan va yuksak badiiy darajaga yetgan. Shunday bo‘lsa-da, zamonaviy ijrochilikda maqomni o‘rganishda yangi usullarni qo‘llash zarur. Ushbu jarayonda san’atning an’anaviy shakllarini saqlab qolish, lekin ularni zamon talablari va texnologik imkoniyatlar bilan boyitish muhimdir. Bundan tashqari, maqom san’ati ustozlari yosh shogirdlarini faqat musiqiy texnikaga o‘rgatibgina qolmay, balki ularning estetik didini rivojlantirish, xalq musiqasining falsafiy, ma’naviy va estetik jihatlarini anglatishga ham alohida e’tibor qaratishlari lozim. Shogirdlar musiqiy ijodning sirlarini anglashga va ijodiy mustaqillikka erishishga intilishlari kerak.

Pedagogik kompetensiya va musiqa ta’limidagi zamonaviy talablar

Zamonaviy musiqa ta’limi o‘qituvchilarining eng muhim xususiyatlaridan biri bu pedagogik kompetensiyadir. O‘qituvchining nafaqat musiqiy bilimlari, balki pedagogik mahorati, yosh avlodni ma’naviy va estetik jihatdan shakllantirish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega. Har bir musiqa ta’limi o‘qituvchisi, ayniqsa maqom san’ati kabi murakkab va o‘ziga xos san’atni o‘rgatish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi kerak.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari nafaqat musiqa nazariyasini, balki ijro san’ati va uning badiiy talqinlarini ham o‘zlashtirishi kerak. Ular musiqaning nafaqat texnik, balki hissiy va estetik tomonlarini o‘rgatib, shogirdlarni har tomonlama rivojlantirishlari lozim. Shuningdek, o‘quv jarayonida texnologiyalardan samarali foydalananish, musiqiy mashqlarni diversifikatsiya qilish, jamoaviy ijroni rivojlantirish kabi jihatlar alohida ahamiyatga ega.

Xulosa

Cholg‘u ijrochiligi va ta’lim, ayniqsa maqom san’ati, o‘zining murakkabligi va nozikligini hisobga olgan holda, nafaqat musiqiy, balki ma’naviy, madaniy tarbiya jarayoni sifatida qaraladi. An’anaviy “ustoz-shogird” tizimi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan birgalikda, maqomni yangi avlodga o‘rgatish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonini takomillashtirish, musiqa san’ati va ijrochilik uslublarini zamon talablari asosida yangilash orqali, maqom san’ati o‘zining tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan holda, kelajak avlodlarga etkazilishi mumkin. Shuningdek, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlikda yuqori darajadagi pedagogik mahorat va innovatsion metodlar orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qilish talab etiladi.

So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar va yangilanishlar musiqa sohasida, xususan maqom yo`nalishida o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbek milliy maqomlarining jahon musiqasidagi o‘rni kengayib, ular o‘zining boy musiqiy an’analari va qadriyatlarini dunyo miqyosida yanada chuqurroq namoyon qilishi kutilmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz maqomlarning tarixiy, madaniy va musiqiy ahamiyatini yaxshiroq tushunish, shuningdek, ularni global musiqa maydonida kengroq tanitishdir. Bu esa nafaqat o‘zbek musiqiy merosining, balki butun dunyo musiqiy madaniyatining rivojiga sezilarli hissa qo’shadi.

Shu bilan birga, poytaxtimizda O‘zbek milliy maqom san’ati markazining tashkil etilishi musiqiy hayotimizda muhim voqeа bo‘ldi. 2021 yil sentabr oyida Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘z faoliyatini boshladi. Mazkur institut maqomlarni o‘rganish, tadqiq qilish va yosh avlodga o‘rgatish borasida yangi yutuqlarni qo‘lga kiritishda muhim rol o‘ynamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning ta’rxi. - Tos’hkent: Fan, 1993
2. Matyoqubov O. Maqomot T.,2004
3. Matyoqubov O.,Boltayev R.,Aminov H. O‘zbek notasi(Xorazm tanbur chizig‘i asosida Dutor maqomi namunalari) T.,2009
4. R.Qosimov - An’anaviy rubob ijrochiligi O‘zbekiston 2000.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
6. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘bek xalq muzikasi.(I-V) Tos’hkent. 1965
7. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi II-qism. T., 2000
8. Yunusov R. S’harq xalqlari maqomlari T.,2022

Research Science and Innovation House